



“EXPERTISE OF NORMATIVE AND TECHNICAL DOCUMENTS”

Ma’ruza 3: Ekspertiza turlari

[Lecture 3. Types of expertise]



Ma'ruza 3: Ekspertiza turlari

Reja:

1. Hujjatlarning ekspertizasi bo'yicha asosiy tushunchalar
2. Ekspertiza turlari
3. Hujjatlarning ekspertiza bosqichlari



Ekspertiza – tajribali mutaxassis yoki mutaxassislar guruhi tomonidan u yoki bu sohada malakali yechim talab qilinadigan masalalarni o'rganish jarayonidir. Ekspertizaning amaliy yoki hujjat tarzidagi natijasi ekspert (mutaxassisning) yoki ekspertlar guruhining xulosasi hisoblanadi



O'zbekiston Respublikasida normativ va texnik hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish bo'yicha asos bo'luvchi hujjat bu - O'zDSt 1.21:2015 Davlat standarti hisoblanadi.

Standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarning ekspertizasi: Normativ hujjatlar (NH) ni Standartlashtirish tizimi, O'lchashlar birliligini ta'minlash Davlat tizimi, O'zbekiston respublikasining Sertifikatlashtirish Milliy tizimi, O'zbekiston Respublikasi Milliy Akkreditatsiya tizimi talablari va boshqa amladagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tekshirish jarayonidir.





TASDIQLAYMAN:
Direktor

“ ” 20 yil

EKSPERT XULOSASI

Metrologik ekspertiza xulosasiga ko'ra _____

taqdim etilayotgan hujjat turi (o'lchas va sinash usullari, konstruktorlik, texnologik hujjatlar va h.k.)

Hujjatlarni ekspertizaga taqdim etgan tashkilot, xat raqami (shartnoma)

_____ tomonidan ishlab chiqilgan va taqdim etilgan

1. Metrologik ekspertizaga taqdim etilgan hujjatlar ro'yxati

Hujjatlarning (hujjat loyihalarining) nomi va raqami (indeksi)

2. Ekspertizaga taqdim etilgan qo'shimcha materiallar _____

(texnik topshiriq, hisobot, bayonnoma va h.k.)

3. Ekspertizani o'tkazishda hal qilinadigan masalalar: _____

(PMF 63-2003 ga muvofiq vazifalar ro'yxati tuziladi)

4. Metrologik ekspertiza natijalari:

4.1. E'tirozlar:

(metrologik ekspertiza masalalarini yechishda paydo bo'lgan e'tirozlar ro'yxati)

4.2. Takliflar:

(metrologik ekspertiza masalalarini yechishda paydo bo'lgan e'tirozlarni bartaraf qilish uchun beriladigan tavsiyalar ro'yxati)

Xulosa.

Ekspert (lar):

(lavozimi)

(imzo)

(imzoning yoyilmasi)


Ekspert xulosasi:

normativ hujjat loyihasi
yoki amaldagi normativ
hujjatga kiritilgan
o'zgartirishlarni
ekspertiza natijalarini
arizachiga
rasmiylashtirilgan
holatda taqdim etish
hujjati.



Ekspertiza obyektlari:

- Normativ hujjat loyihasi;
- Qayta ko'rib chiqish va davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun tasdiqlangan NH;
- Amaldagi NH ga kiritilgan o'zgartirishlar;
- Davlat ro'yxatiga kiritishga tayyorlanayotgan amaldagi NH ga kiritilgan va tasdiqlangan o'zgartirishlar.





Ekspertiza turlari:

- me'yoriy nazorat;
- ilmiy-texnik darajasini baholash;
- kelishuvning to'liqligi;
- majburiy talablarga muvofiqligi;
- ochiq nashrga ruxsat etilmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

-texnik ekspertiza;

-metrologik ekspertiza;

-ekologik ekspertiza;

-terminologik ekspertiza;


-nashriyot tahriri.





1.Me'yoriy nazorat:

- -amaldagi normativ va boshqa hujjatlarga to'g'ri va qonuniy havola keltirish;
- -NH(normativ hujjatlar)ning kerakli axborot beruvchi yozuvlarining to'g'riligi (nomlanishi,belgilanishi,mahsulotlarning umumdavlat klassifikatori bo'yicha kodi (OKП)-(MZDT), standartlarning umumdavlat klassifikatori bo'yicha kodi, O'zDSt 002, kiritilgan yili,va (yoki) amal qilish muddati, "Birinchi marta kiritilgan" yozuvi, agar standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarning o'rniga ishlab chiqilgan bo'lsa, unga oid ma'lumotlar ko'rsatib o'tiladi;
- -ijrochi, tekshiruvchi shaxslarning imzolarining mavjudligi;
- -NHning O'zDSt 1.6 standart talablariga muvofiq to'g'ri tuzilganligi va rasmiylashtirilganligi;
- -NHning tashqi ko'rinishi.





Ilmiy-texnik darajasini baholash:

O'z RH 51-077 ga asosan o'tkaziladi.

Buyumni loyihalash va ishlab chiqishda zamonaviy ilg'or texnologiyalar va ilm-fanning so'nggi yutuqlaridan foydalanilganligini tekshiriladi;





3. Kelishuvning to'liqligi:

-O'zDSt 1.1 bo'yicha manfaatdor tashkilotlar ro'yhatiga muvofiq NHning kelishuvining to'liqligi. O'zDSt 1.28 ro'yhatiga kiritilmagan lekin zarur hisoblangan qo'shimcha kelishuvlar;

-sharh (izoh) xulosasi, ilmiy-texnik kengashning bayonnomalari, kelishuv majlislari, NHda ko'rsatilgan kamchiliklar, ogohlantirish va takliflarning to'liq aks ettirilganligi, ishlab chiquvchining kamchilik va takliflari bo'yicha tushuntirish xulosalarining haqiqiylikini aniqlash bo'yicha tahlillar o'tkaziladi.





4. Majburiy talablarga muvofiqligini tekshirish:

-O'zDSt 1.0, O'z RH 51-010 standartlari bo'yicha majburiy talablarni to'liq va to'g'riligi, Mehnat xavfsizligi bo'yicha davlatlararo, xalqaro va milliy standartlarga muvofiqligini, O'zDSt ISO/IEC 7 bo'yicha sertifikatlashtirish, metrologiya va akkreditlashtirish talablariga, hamda texnik topshiriqqa muvofiqligi;

Shu bilan birga NH mahsulot, ish yoki xizmatlar uchun texnik reglamentlar mavjud bo'lgan hollarda, texnik reglamentlar talablariga muvofiqligi ham tekshiriladi.



5. Ochiq nashrga tegishli bo'lmagan ma'lumotlar:



- mavjud bo'lgan hollarda maxsus ko'rsatmaga muvofiq tekshiriladi.



6. Texnik ekspertiza:



- ✓ -texnik topshiriq (mavjud bo'lgan hollarda) NHning nomlanishi, tarkibi va standartlashtirish rejalariga muvofiqligini aniqlash, standartlashtirish ob'ekti darajasining O'zDSt 1.0 ga muvofiqligi;
- ✓ -xalqaro, davlatararo va mintaqaviy standartlariga, NH ko'rsatkichlari talablarining muvofiqligi;



- ✓ -O'zDSt 1.0; O'zDSt 6.01.1; O'zDSt 6.01.2; PCT 6.01.5 bo'yicha NHLarning tarkibi va tuzilishini to'g'riligi tekshiriladi;
- ✓ -ilmiy-texnik darajasi va boshqa davlatlarning milliy standartlariga muvofiqligi tekshiriladi.

Technical
expertise



7. Metrologik ekspertiza:



International System of Units - SI	
K	▶ kelvin (<i>temperature</i>)
m	▶ meter (<i>distance</i>)
A	▶ ampere (<i>electric current</i>)
s	▶ second (<i>time</i>)
mol	▶ mole (<i>amount of substance</i>)
kg	▶ kilogram (<i>mass</i>)
cd	▶ candela (<i>intensity of light</i>)

O'z RH 51-106 va PIMΓ 92-2009 bo'yicha o'tkaziladi.

Ekspertiza obyektining metrologik talablarga va muvofiqligini tekshirish va baholash;

- ✓ - O'lchanadigan parametrlar nomenklaturasini ratsionalligi,
- ✓ - o'lchash vositasi va usullarini,
- ✓ - metrologik xizmat imkoniyatlarini to'g'ri tanlanganligi.



8. Ekologik ekspertiza:



O'zbekiston Respublikasi Atrof muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi o'rnatgan tartibga ko'ra o'tkaziladi.



boshqaruv tizimidagi maxsus tarmoq faoliyati bo‘lib, u tabiat va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni uyg‘unlashtirish, ekologikiqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, xalqning ekologik mafaatlarini amalga oshirish bo‘yicha ekologik ekspertiza usulini qo‘llash asosida tabiatdan foydalanishning ekologik talablarga muvofiq kelishini aniqlaydigan va ularni nazorat qiladigan maxsus davlat boshqaruv tizimidir.

Ekologik ekspertiza

Daylat ekologik ekspertizasi quyidagilarni aniqlaydi:

- ✓ prognoz qilinayotgan xo'jalik va boshqa faoliyatni amalga oshirish haqida qaror qabul qilishgacha bo'lgan bosqichda ushbu faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini;
- ✓ mo'ljallanayotgan yoki amalga oshirilayotgan faoliyatning ekologik xavflilik darajasini;
- ✓ atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlarning yetarliligi va asosliligini.

Ekologik ekspertizaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- xolislik;
- asoslilik;
- ekologik xavfsizlik talablarini hisobga olishning majburiyligi;
- har qanday rejalashtirilayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyatning ehtimol tutilgan ekologik xavflilik prezumpsiyasi;
- xo‘jalik va boshqa xil faoliyatning atrof tabiiy muhitga va fuqarolar sog‘lig‘iga ta’sirini baholashning kompleksligi.

- * taqdim etilgan materiallarning tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun xujjatlariga muvofiqligi tekshiriladi;
- * biologik, kimyoviy moddalar va texnologiyalarning atrof tabiiy muhitga ta'sirini baholashning asosliligi tekshiriladi;
- * rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish oqibatlarining ekologik xavfliligi darajasini baholashning to'g'riligi tekshiriladi;
- * ekologik xavfsizlik talablarini ta'minlashga doir chora-tadbirlarning yetarliligi va asosliligi aniqlanadi;
- * ekologik normativlar loyihalarining asosliligi tekshiriladi.

Ekologik ekspertizasini o'tkazishda qo'yiladigan talablar:

Ekologik ekspertizasini o'tkazish muddati o'ttiz kundan oshmasligi lozim. Uni o'tkazish muddati davlat ekologik ekspertizasi obyektining murakkabligiga qarab O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi tomonidan ko'pi bilan ikki oyga uzaytirilishi mumkin.

Ekologik ekspertizasi natijalari bo'yicha xulosa tuzilib, u davlat ekologik ekspertizasi obyektini ro'yobga chiqarish mumkinligi yoki mumkin emasligi to'g'risidagi yakunlarni o'z ichiga olgan bo'ladi.

9. Terminologik ekspertiza:



-davlat tili va rus tilida hujjatlar mavjudligini aniqlash bosqichi hisoblanib, NH o'rnatilgan tartibda ilmiy-texnik atamalarga mosligi, O'zDSt 1.10 ; O'zDSt 5.5 ; PCT Y₃ 6,01,5; O'zDSt 8.010.1; O'zDSt 8.010.2; O'zDSt 8.010.4; O'zDSt 8.012 ; O'zDSt ISO 9000; PCT Y₃ 622 va boshqa davlat va davlatlararo terminologik standartlarda keltirilgan qoidalarga muvofiq ish yuritish, Davlat tili va rus tilidagi matnlarning mosligi, tarjimaning aniqligini tekshirish.



- standart matnida topilgan hujjatlar nomlari asl manbalar nomlariga muvofiqligi tekshiriladi;
- ilmiy-texnik atamalar standartlari va boshqa lingvistik va sanoat standartlari nomi va matnida ilmiy-texnik atamalar, qisqartmalar, belgilanishlar uchun ishlatilishining to'g'riligini tekshiriladi;
- standartlashtirilmagan ilmiy-texnik atamalar va standartlarda qo'llaniladigan boshqa lingvistik va ramziy vositalarning muvofiqligi tekshiriladi.

**Terminologik ekspertizada
quyidagilar tekshiriladi:**

- agar standartlarda fizik kattaliklarning nomlari va belgilari mavjud bo'lsa, ularning muvofiqligi GOST 8.417-81 asosida tekshiriladi;
- texnologik jarayonlarning nomlari ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning yagona tizimini tashkil etuvchi standartlarga va ishlab chiqarish jarayonlari texnologiyasini tartibga soluvchi standartlarga muvofiqligi tekshiriladi;
- dizayn hujjatlarini amalga oshirish, bajarish, qayta ishlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq ilmiy-texnik atamalar ECKД va ECTД standartlari to'plamiga muvofiqligi tekshiriladi;
- grafik belgilar va ramzlar ECKД standartlari to'plami talablariga muvofiqligi tekshiriladi.

- * Terminlar va ta'riflar uchun standart loyihasini ekspertizadan o'tkazish paytida ishlab chiqish, bajarish va taqdimotda buxgalteriya hisobining to'liqligini ko'rib chiqing ushbu standartdan, terminologiyani standartlashtirish bo'yicha tavsiyalar shuningdek:
- * standartlashtirilgan terminologiya tizimiga muvofiqligi zamonaviy ilmiy bilim va texnik rivojlanish darajasi;
- * standart loyihasiga kiritilgan atamalar va ta'riflarning muvofiqligi standart nomi va uning ko'lami;
- * mavzu doirasining atamalari va ta'riflari bilan qamrab olishning to'liqligi, bo'yicha ushbu standart qaysi amal qiladi;
- * to'g'ri keladigan printsipga rioya qilish kontseptsiya tizimini tashkil etish va standartdagi atamalarni tartibga solish tushunchalar orasidagi aloqalarni hisobga olish;
- * yangi va allaqachon standartlashtirilgan o'rtasidagi ziddiyatlarning yo'qligi shartlar;
- * xorijiy tillardagi ekvivalentlarning haqiqiyliigi;
- * standart nomining ingliz tiliga tarjimasining haqiqiyliigi;
- * standart loyihasida sinonimik atamalarning yo'qligi;
- * alifbo indeksining tuzilishi va bajarilishining to'g'riligi, standart loyihasida berilgan.

Izoh: Terminologiya sohasidagi standartlashtirishning asosiy maqsadi har xil narsalarning aniq tushunilishini ta'minlash qoidalar, normalar va boshqa talablarning normativ-texnik hujjatlaridan universal foydalanish uchun yagona shartlarni belgilashdir.

Ko'rsatilgan standartlar loyihalarini ekspertizadan o'tkazish belgilash zarur bo'lgan holatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- standartlar loyihalarining maqsad va vazifalarga muvofiqligini baholash;
- standartlarda qo'llanilgan terminologiyaning qonunchilik talablariga muvofiqligini tekshirish;
- standartlar loyihalarining belgilangan milliy standartlari uchun asosiy qoidalarga muvofiqligini tekshirish;
- standartlar loyihalarida manfaatdor tomonlardan olingan sharhlar va takliflarni hisobga olishning to'liqligini baholash;
- standartlarda ob'ektlarga qo'yiladigan talablarning to'liqligini baholash.

Qoidalariga muvofiq nazorat qilishda standart loyihasida quyidagilarga alohida e'tibor qaratilgan.

- * standart nomi bayonotining to'g'riligi;
- * standartning tuzilishi va (yoki) tarkibining pastki sarlavhaga muvofiqligi uning nomi;
- * "qamrov" bo'limida keltirilgan formulalar va ularning standartlashtirish ob'ekti va aspektini birma-bir aks ettirish qobiliyati va qachon zaruriyat va ko'lam;
- * standart loyihasi tarkibining ichki muvofiqligi va bo'limlar (kichik bo'limlar) tarkibining ularning sarlavhalariga muvofiqligi;
- * standartlarga va boshqa hujjatlarga havolalardan foydalanishning asosligi vahavola qilingan hujjatlarning harakatlari;
- * xatboshilar va pastki bandlarni raqamlashning to'g'riligi, dasturlarning belgilanishi (ularning holatini ko'rsatib: majburiy, tavsiya etilgan, ma'lumotnoma), jadvallar, grafik materiallar, formulalarni raqamlash;
- * jadvallarni, izohlarni, eslatmalarni formatlash qoidalariga rioya qilish, grafik materiallar va formulalar;
- * standart matnida ilovalar, jadvallarga havolalar mavjudligi, grafik materiallar va formulalar;
- * matnda nomlash standartidan foydalanish zaruriyati mahsulotlar (shu jumladan xom ashyo, materiallar va mahsulotlar), xizmatlar va jarayonlar, milliy o'rnatilgan va ushbu mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarning davlat standartlari o'rtasida;
- * ishlatiladigan ramziy va lisoniy vositalarning yozishmalari rus tili standarti, normalari va qoidalari (leksik, so'z yasalishi, sintaktik va uslubiy);
- * standart loyihasida sinonimlardan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi standartlashtirilgan atamalar, texnikizm va professionalizm;
- * loyihada qisqartmalardan foydalanishning asosligi;
- * ko'rsatilgan standartlashtirish ob'ekti va jihatlariga muvofiqligi bibliografik ma'lumotlar Butunrossiya guruhi yoki kichik guruhi kodiga ishlab chiqilgan standartlarning klassifikatori (CCS) OK (M K (ISO / INFCO M KS) 001-96) 001 bo'yicha standart.

10. Nashriyot tahriri



O'zDSt 1.6 bo'yicha o'tkaziladi. Nashriyot tahriri 2ga bo'linadi;
-ilmiy va adabiy tahrirlash;
-texnik tahrirlash.

- **Ilmiy va adabiy tahrirlash**-NHni mantiqan, texnik va adabiy xatolarsiz tuzilishini ta'minlash maqsadida o'tkaziladi. Bunda qabul qilingan qisqartmalarga amal qilish, orfografik, sintaksik, stilistik xatoliklarni aniqlash va tuzatish xisobga olinishi zarur;
- **Texnik tahrirlash**-NHni tirajli ko'p miqdorda nashr etishda: xat boshilarining to'g'ri joylashishi, belgilanishi, sahifalarning raqamlanishi, xatboshi va matnlar oralig'i, abzas, qatorlar, undagi jadvallar, formulalar joylashuvi va oraliqlari bo'yicha tekshiriladi. Matnni nusxalash imkoniyati hisobga olinadi.

Writing
AND EDITING TEXT



NHlarning standartlashtirish bo'yicha ekspertiza bosqichlari.



Ekspertiza bosqichlari:

-kirish nazorati;

-NH ekspertizasini o'tkazish;

-NH ekspertiza natijasini rasmiylashtirish.



1. Kirish nazorati




Kirish nazorati - da quyidagilar tekshiriladi:

-O'zDSt 1.1 bo'yicha NHga tegishli hujjatlarning to'liqligi, NHni, o'zini to'liqligi – barcha sahifalar, ilovalarning va h.k.larning mavjudligi, zarur bo'lgan hollarda O'zDSt 2.116 bo'yicha mahsulot sifati va texnik daraja kartasining mavjudligi;

-PCT Y₃ 15.012 bo'yicha "Patent formulalari"ning mavjudligi (zarur hollarda)

-o'zgartirish loyihasini ekspertiza qilishda hujjatni o'zini va unga avval kiritilgan o'zgartirishlarning davlat ro'yhat raqamining mavjudligi;

-NHning informatsion-qidiruv belgilarining O'zDT 002; O'zDSt 1.1; O'zDSt 1.5; O'zDSt 1.6; O'zDSt 1.7; (ISO/IEC Guide 21:2005) O'zDSt 1.28 bo'yicha to'g'ri yozilganligi.



2. Normativ hujjatlarning ekspertizasini o'tkazish



2. Normativ hujjatlarning ekspertizasini o'tkazish – NH ekspertizasi O'zResptJTSA, DavAQQ, Davlat Atrof Muhitni Muhofaza Qilish Qo'mitasi, SSV, Mudofaa Vazirligi, standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik tashkiloti tomonidan quyidagi holatlarda o'tkaziladi:



- - NH loyihasini tasdiqlashga taqdim etishga qadar (NHni davlat ro'yhatidan o'tkazishda ekspertiza dalolatnomasining mavjudligi tekshiriladi);
- - O'zResptJTSA Agentligi va boshqa davlat boshqaruv organlarining tashirig'iga binoan:

- - hujjatni ishlab chiquvchilar va boshqa manfaatdor tashkilotlarning arizasiga binoan (kelishuv asosida)

NHni ekspertizadan o'tkazuvchi shaxslar - ekspertlar "звания" ga ega bo'lishlari kerak: Standartlashtirish sohasidagi ekspertlar O'zDSt 1.26 bo'yicha talablarga; O'lchashlar birligini ta'minlash sohasidagi ekspertlar O'zDSt 8.026 bo'yicha talablarga javob berishi kerak.



TASK & DOCUMENT MANAGEMENT



3.NH ekspertiza namunalarining rasmiylashtirish bosqichi

NH ekspertiza namunalarining rasmiylashtirish bosqichi – NH ekspertizasi namunalari ishlab chiqilgan shakldagi xulosa ko'inishida ekspert xulosasi rasmiylashtiriladi. Xulosada o'tkazilgan barcha turdagi ekspertiza namunalari aks etadi. Xulosada ekspertiza ob'ektining umumiy tavsifi quyidagi yozuv ko'inishida beriladi:

Standartlashtirish bo'yicha NH (standartlashtirish bo'yicha NH loyihasi) Standartlashtirish tizimi, O'lchashlar Birligini Ta'minlash Davlat Tizimi, O'zbekiston Respublikasi Milliy Sertifikatlashtirish Tizimi va O'zbekiston Respublikasi Milliy Akkreditatsiya Tizimi talablariga muvofiq (nomuvofiq).

Xulosa ekspertiza o'tkazgan ekspert va bo'lim boshlig'i imzosi bilan ma'qullanadi va tashkilot rahbariyati tomonidan B ilovada ko'rsatilgan shaklg



Ekspertiza xulosasida NH ichlab chiquvchi tashkilotlar bilan kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, A ilovadagi shakl bo'yicha kelishmovchiliklar to'g'risida ma'lumotnoma tayyorlanadi. Kelishmovchiliklar bo'yicha so'ngi xulosani NHni tasdiqlovchi organ (O'zRespTJTSA, SSV, MV, DAQQ, DAMMQQ) tegishli xulosa ko'rinishida beradi.



Ekspertiza xulosasi:

- ariza beruvchiga;
 - asl nusxani ishlab chiquvchi va saqlovchiga yuboriladi.
- Ekspertizaga taqdim etilgan NH va uning ilovalari, xulosaning 1 nusxasi ekspertizani o'tkazgan tashkilotda saqlanadi, ko'p hollarda O'zRespTJTSAgentligiga xam yuboriladi. NHLarni ekspertizasini o'tkazish xizmatlari davlat tilidagi (zarur hollarda rus tilidagi) Normativ Hujjatlarning sahifalari sonidan kelib chiqib baholanadi. Ekspert javobgarlik xulosasini xolisligi va to'g'riligi bo'yicha ekspertizani o'tkazuvchi javobgar shaxs -ekspertlarga yuklatiladi.





O'zDSt 1.21:2015

A ilova

Kelishmovchilik bo'yicha ma'lumotnoma shakli

MA'LUMOTNOMA

Ekspertiza natijalari bo'yicha kelishmovchiliklar haqida (dalolatnoma _____

№ _____)

Belgisi va nomi

Me'yoriy hujjat

Bo'lim, band, ilovalarning tartib raqami	Ekspert fikri	Ishlab chiquvchi fikri
--	---------------	------------------------

Ekspertizani o'tkazgan tashkilot rahbari

Shaxsiy imzo

Imzo yoyilmasi

Ishlab chiquvchi tashkilot (buyurtmachi)

Shaxsiy imzo

Imzo yoyilmasi



© dreamstime.com

ID 19246380 © Aam

O'zDS, 1.21-2015

B joya

Xulosa

"TASDIQLAYMAN"

Direktor _____

_____ (somi)

_____ (tasdiqlay)

_____ (F.I.SH)

Xulosa №

_____ imzo

Ekspertiza bo'limi bo'limi

_____ (normativ hujjatning nomi va belgisi)

_____ (№ _____ hujjatnoma hujjatining raqam va statusi)

NH loyihasidagi ko'rsatkichlar darajasi standartlashtirish bo'limi dasturlarini va milliy NHlarning talablarini bilan uyg'unlashtirilgan.

_____ da keltirilgan ko'rsatkichlar qisqasi tahlil qilinib, Ekspertiza bo'limi tomonidan o'lashtirilgan, ish natijasida NH.

_____ (normativ hujjatning nomi va belgisi)

O'zbekiston

Respublikasi

qo'mandachiligiga

_____ (muvofiq, muvofiq emas)

Standartlashtirish tizimi talablarini va mahsulotni kataloglash, O'BTDT, milliy sertifikatlashtirish tizimi, tarmoqlararo standartlashtirish tizimi talablariga, va Davlat to'ylariga kirishni uchun muvofiq, muvofiq emas.

Ekspertiza bo'limi boshlig'i

_____ (F.I.SH)

Mutaxassis

_____ (F.I.SH)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ю.А.Орлов, Д.Ю.Орлов, Е.В.Арефьев и др. «Метрологическая экспертиза и нормоконтроль технической документации» ВлГУ-2019. 79 с.
2. ГОСТ 2.102-2013. Единая система конструкторских документации. Виды и комплектность конструкторских документов.
3. O'zDSt 1.21:2015 Hujjatlarning ekspertizasi.